

O'LMAS UMARBKOV VA ARTUR KONAN DOYL DETEKTIV ASARLARIDAGI MUSHTARAKLIK VA O'ZIGA XOSLIK

*Adabiyotshunoslik: Jahon adabiyoti
yo'nalishi 2-bosqich magistranti
Eshnazarova O'g'ilshod*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Artur Konan Doyle va O'lmas Umarbekov detektiv asarlaridagi mushtaraklik va o'ziga xoslik jihatlari qiyosiy-tahliliy asosda o'rganildi. Tadqiqot jarayonida syujet qurilishi, jinoyat motivi, detektiv obrazining tipologik xususiyatlari hamda psixologik va ijtimoiy omillar tahlil qilindi. "Yoz yomg'iri" va Konan Doylening detektiv asarlari misolida ingliz va o'zbek adabiyotida detektiv janrining turlicha talqini ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: detektiv janri, qiyosiy tahlil, psixologizm, jinoyat motivi, syujet, obraz, milliy tafakkur, ijtimoiy drammatizm, badiiy struktura.

Аннотация: В данной статье на сравнительно-аналитической основе исследуются общие черты и особенности детективных произведений Артура Конан Дойла и Олмаса Умарбекова. В ходе исследования анализируются структура сюжета, мотив преступления, типологические характеристики детективного образа, а также психологические и социальные факторы. На примере «Летнего дождя» и детективных произведений Конан Дойла представлены различные интерпретации детективного жанра в английской и узбекской литературе.

Ключевые слова: детективный жанр, сравнительный анализ, психологизм, мотив преступления, сюжет, образ, народное мышление, социальный драматизм, художественная структура.

Abstract: This article studies the commonalities and distinctiveness of the detective works of Arthur Conan Doyle and Olmas Umarbekov on a comparative-analytical basis. In the course of the research, the plot structure, the motive of the crime, the typological characteristics of the detective image, as well as psychological and social factors were analyzed. On the example of "Summer Rain" and the detective works of Conan Doyle, different interpretations of the detective genre in English and Uzbek literature were shown.

Keywords: detective genre, comparative analysis, psychologism, motive of the crime, plot, image, national thinking, social drammatism, artistic structure.

KIRISH

Detektiv janri jahon adabiyotida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mustaqil badiiy hodisa sifatida shakllandi. Bu janrning nazariy va amaliy asoslari, avvalo, Artur

Konan Doyl ijodi bilan bog'liq bo'lib, u yaratgan Sherlock Holmes obrazi mantiqiy tafakkur, kuzatuvchanlik va deduktiv metod timsoliga aylandi. Keyinchalik detektiv janri turli milliy adabiyotlarda o'ziga xos shakllarda rivojlanib, mahalliy ruh, ijtimoiy muhit va ma'naviy qadriyatlar bilan boyidi.

O'zbek adabiyotida detektiv unsurlar dastlab sarguzasht va ijtimoiy-maishiy asarlar tarkibida namoyon bo'lgan bo'lsa, keyinchalik alohida badiiy yo'nalish sifatida shakllana boshladi. Shu jarayonda O'lmas Umarbekov ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Uning qissa va hikoyalarida jinoyat voqeasi oddiy syujet elementi bo'lib qolmay, balki inson ruhiyati, oila muammolari, ijtimoiy ziddiyatlar bilan chambarchas bog'langan murakkab badiiy tizim sifatida talqin qilinadi. Masalan, "Yoz yomg'iri" asarida voqea tashqi jihatdan jinoyat hodisasi bilan boshlangan bo'lsa-da, asarning asosiy og'irligi insoniy munosabatlar inqirozi va ma'naviy fojiaga qaratiladi.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur tadqiqot qiyosiy-adabiyotshunoslik tamoyillariga asoslanadi. Asosiy metod sifatida komparativ tahlil usuli qo'llanildi, ya'ni Artur Konan Doyl va O'lmas Umarbekov asarlaridagi syujet qurilishi, obrazlar tizimi, psixologik tasvir va janr xususiyatlari o'zaro solishtirildi. Qiyoslash jarayonida tarixiy-tipologik yondashuv ham qo'llanib, har ikki adib ijod qilgan davrning ijtimoiy-madaniy sharoiti inobatga olindi.

Detektiv janr uchun xos bo'lgan kompozitsion model – jinoyat, tergov, dalillarni yig'ish, mantiqiy xulosa va final bosqichlari alohida o'rganildi. Konan Doyl hikoyalarida deduktiv metodning ishlash mexanizmi, dalil va xulosaning o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi. Xususan, "Alvon rangli etyud", "To'rtlar belgisi", "Sherlock Holmes sarguzashtlari" hamda "Baskervillar iti" asarlarida syujetning mantiqiy qurilishi va sir ochilish mexanizmi ko'rib chiqildi. Bu asarlarda detektiv tafakkur markaziy o'rinda turishi, voqealar tizimi aynan analitik jarayon atrofida shakllanishi aniqlanadi.¹

O'zbek adabiyoti namunasida esa O'lmas Umarbekovning "Yoz yomg'iri", "Qotillik" hamda "Sirli voqea" kabi asarlari tahlil ob'ekti sifatida tanlandi. Ushbu matnlarda jinoyat voqeasi ko'pincha ijtimoiy-maishiy ziddiyatlar bilan uzviy bog'langanligi, tergov jarayoni esa inson ruhiyati tahlili bilan birga olib borilishi kuzatildi.² Strukturaviy tahlil shuni ko'rsatadiki, Umarbekovda detektiv syujet dramatik konflikt bilan qorishib ketadi.

Qiyosiy tahlil natijasida quyidagi jihatlar aniqlash maqsad qilindi:

1. Syujet qurilishidagi o'xshash va farqli tomonlar;
2. Detektiv obrazining tipologik xususiyatlari;
3. Mantiqiy va psixologik tahlil nisbatlari;

¹ Artur Konan Doyl. *Alvon rangli etyud*. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2022. – 43-47 b.

² O'lmas Umarbekov. *Yoz yomg'iri*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984. – 43-48b.

4. Milliy muhitning janrga ta'siri;
5. Final yechimning badiiy-falsafiy talqini.

Shunday qilib, mazkur tadqiqotda komparativ, strukturaviy, psixologik va tarixiy-tipologik metodlar uyg'unligi asosida Artur Konan Doyl va O'lmas Umarbekov detektiv hikoyalarining mushtaraklik va o'ziga xoslik jihatlari ilmiy asosda tahlil qilindi.

Janr nazariyasiga oid qarashlar tahlil markazida turdi. Ozod Sharafiddinov ning adabiy jarayon va badiiy tafakkur evolyutsiyasiga bag'ishlangan maqolalarida realizm, psixologizm va zamonaviy proza muammolari chuqur yoritilgan. Uning "Adabiy tanqid masalalari" turkumidagi ishlari zamonaviy o'zbek nasrida konflikt va xarakter masalasini tushunishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.³ Mazkur tadqiqotda Umarbekov asarlaridagi ichki ziddiyat va ruhiy drammatizm aynan shu nazariy yondashuv asosida ko'rib chiqildi.

Umarali Normatov zamonaviy o'zbek nasri poetikasini o'rganishda janr sintezi va psixologik tahlil masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Uning tadqiqotlarida o'zbek qissachiligida drammatizm va ichki monologning o'rni keng yoritilgan. Umarbekov ijodidagi detektiv unsurlarni ijtimoiy-psixologik drama bilan bog'liq holda talqin etishda ushbu ilmiy qarashlar tayanch vazifasini bajardi.⁴

Detektiv janrning nazariy asoslarini belgilashda mahalliy olimlarning janr tipologiyasiga doir ishlari ham o'rganildi. O'zbek adabiyotshunosligida detektiv ko'proq sarguzasht va ijtimoiy-maishiy proza doirasida tadqiq etilgan bo'lsa-da, keyingi yillarda janrning mustaqil estetik hodisa sifatida talqini kuchaygan. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy o'zbek nasrida konflikt, syujet va kompozitsiya masalalariga bag'ishlangan ilmiy maqolalar umumlashtirildi.⁵

Metodologik jihatdan ushbu tadqiqot quyidagi tamoyillarga tayandi:

1. Janr tipologiyasi – detektivning universal modelini aniqlash;
2. Psixologik tahlil – qahramon ichki dunyosini ochish;
3. Ijtimoiy-kontekstual yondashuv – voqealarni davr va muhit bilan bog'lash;
4. Qiyosiy metod – ingliz va o'zbek adabiy an'analarini solishtirish.

O'zbek nasrida jinoyat voqeasi ko'pincha insoniy munosabatlar inqirozi bilan uzviy bog'liq holda tasvirlanadi. Bu jihat O'lmas Umarbekov ijodida ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi. Konan Doyl detektivida esa intellektual tahlil ustuvor bo'lsa, o'zbek talqinida ruhiy drammatizm yetakchi o'ringa chiqadi.⁶

³ Ozod Sharafiddinov. *Adabiy tanqid masalalari*. – Toshkent: Fan, 1981. – 91-96 b.

⁴ Umarali Normatov. *Zamonaviy o'zbek nasri poetikasi*. – Toshkent: Fan, 2006. – 84 b.

⁵ Artur Konan Doyl. *To'rtlar belgisi*. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2024. – 75 b.

⁶ Ibrohim G'afurov. *Badiiy tafakkur qirralari*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – 70 b.

NATIJA VA MUHOKAMA

Artur Konan Doyl hamda O‘lmas Umarbekov detektiv yo‘nalishdagi asarlarida janrning tashqi struktur modeli o‘xshash bo‘lsa-da, ichki badiiy mohiyat, maqsad va estetik yo‘nalish jihatidan sezilarli tafovutlar mavjud.

“Yoz yomg‘iri” asarining ekspozitsiyasi bevosita fojiviy vaziyat bilan ochiladi: tong saharda tramvay haydovchisi tomonidan topilgan ayol jasadi. Muallif tasvirida ayolning “sochlari yuziga yopishib ketgan”, “lablari chetida qon qotgan”ligi singari detallarning berilishi voqea dramatzimini kuchaytiradi. Bu yerda detektiv syujet bir vaqtning o‘zida hissiy-estetik muhit bilan uyg‘unlashadi. Jinoyat faktidan oldin insoniy fojia ko‘rsatiladi.

Konan Doylning “Alvon rangli etyud” asarida ham voqea o‘lik jasad topilishi bilan boshlanadi. Biroq bu yerda tasvir ancha sovuqqon va mantiqiy xarakterga ega: devordagi yozuv, qon izi, makon detallari tahlil uchun material vazifasini bajaradi. O‘quvchi voqeaga hissiy emas, intellektual pozitsiyadan kiradi. Umarbekov dramatik kayfiyat orqali o‘quvchini ruhiy muhitga olib kiradi, Konan Doyl esa o‘quvchini tafakkur jarayoniga tayyorlaydi.

“Yoz yomg‘iri” da jinoyat oilaviy ziddiyatlar, moddiy tanglik, rashk va o‘zaro ishonchsizlik natijasida kelib chiqadi. Asarda er-xotin o‘rtasidagi tortishuvlar asta-sekin ichki inqirozga aylanishi ko‘rsatiladi. Jinoyat tasodifiy emas, balki ruhiy yemirilishning yakuniy bosqichi sifatida talqin qilinadi. Masalan, qahramonlarning o‘zaro suhbatlari, uy ichidagi sovuqlik, mayda maishiy kelishmovchiliklarning chuqurlashuvi fojiga olib boruvchi psixologik zaminni yaratadi. Demak, jinoyat tashqi kuch emas, ichki parchalanish mahsuli sifatida talqin etiladi.⁷

“To‘rtlar belgisi” asarida esa jinoyat sababi xazinaga egalik qilish istagi bilan bog‘liq. Konflikt tashqi manfaatga asoslangan. Qahramonlar harakati boylikni yashirish yoki qo‘lga kiritish istagi bilan belgilanadi. Bu yerda jinoyat sarguzasht va sirlilik elementlari bilan uyg‘unlashadi. Shunday qilib, Umarbekovda jinoyat ijtimoiy-ruhiy fojiga aylansa, Konan Doylda u sarguzashtli-intellektual muammoga aylanadi.⁸

Sherlock Holmes obrazi faktlarni yig‘ish, mayda detallarni tahlil qilish va deduktiv xulosa chiqarish orqali harakat qiladi. “Baskervillar iti” asarida afsonaviy “sirli it” voqeasi mistik tusga ega bo‘lsa-da, Holms uni ilmiy-mantiqiy asosda izohlaydi. Bu yerda muallif qo‘rquvni ratsional tafakkur yordamida yo‘q qiladi.⁹

Umarbekov asarlarida esa tergov jarayoni ruhiy tahlil bilan birga boradi. Qahramonlarning ichki monologlari, iztirob va pushaymonlik holatlari voqea rivojida muhim rol o‘ynaydi. Jinoyatni ochishdan ko‘ra, inson qalbidagi ziddiyatni ochish

⁷ O‘lmas Umarbekov. *Tanlangan asarlar*. – Toshkent: Sharq, 1991. – 96 b.

⁸ Artur Konan Doyl. *To‘rtlar belgisi*. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2024. –82 b.

⁹ Artur Konan Doyl. *Baskervillar iti*. – Toshkent: Kitobdornashr, 2023. – 63-68 b.

muhimroq bo'lib qoladi. Natija shuni ko'rsatadiki, Konan Doylda mantiqiy tafakkur ustuvor, Umarbekovda esa psixologik drammatizm yetakchi.

Konan Doyl detektivlarida an'anaviy ikki qatlamli syujet kuzatiladi:

1. Jinoyatning o'zi (o'tmishdagi voqea);
2. Tergov jarayoni (hozirgi zamon voqeasi).

Masalan, "Alvon rangli etyud" da voqea ikki qismdan iborat: birinchi qism Londondagi tergov, ikkinchi qism esa jinoyat ildiziga olib boruvchi tarixiy voqealar bilan bog'liq. Bu strukturaviy model detektiv janrining klassik shaklini ifodalaydi. Umarbekov asarlarida esa syujet ko'proq chiziqli va dramatik xarakterga ega. Voqealar bir tekis rivojlanadi, lekin ichki konflikt chuqurlashib boradi. Kompozitsiya jinoyatni ochishdan ko'ra, ruhiy taranglikni oshirishga xizmat qiladi.

Konan Doyl yaratgan Holms obrazi ideal intellektual tip sifatida namoyon bo'ladi. U hissiyotlardan xoli, fakt va mantiqqa tayangan holda ish ko'radi. U jinoyatni shaxsiy fojidan ajratib, ilmiy muammo sifatida ko'radi. Umarbekov qahramonlari esa hissiy, ichki ziddiyatga boy va ko'pincha zaifliklarga ega insonlardir. Ular ijtimoiy muhit ta'sirida yashaydi, ichki kurash olib boradi. Detektiv unsurlar fonida insoniy drammatizm kuchliroq aks etadi.

Konan Doyl asarlarida Viktoriya davri Angliyasi, shahar madaniyati, huquqiy tizim va burjua jamiyati tasvirlanadi. Jinoyat ko'pincha meros, boylik yoki sirli tashkilotlar bilan bog'liq.¹⁰

Umarbekov esa sovet davri o'zbek jamiyatini tasvirlaydi. Maishiy hayot, oila, iqtisodiy qiyinchiliklar, axloqiy inqiroz voqealar fonini tashkil etadi. Jinoyat ijtimoiy muhit mahsuli sifatida talqin qilinadi.

Konan Doyl asarlarida jinoyatchi fosh etiladi va adolat tiklanadi. Syujet aniq mantiqiy yechim bilan tugaydi.

"Yoz yomg'iri" da esa jinoyat ochilgan taqdirda ham fojiviy kayfiyat saqlanib qoladi. Insoniy yo'qotish bartaraf etilmaydi. Bu yerda muallif adolatni emas, ma'naviy saboqni ustuvor qo'yadi.¹¹

Tahlil natijasida quyidagilar aniqlandi:

1. Har ikki adib detektiv janrning kompozitsion modeliga amal qiladi.
2. Konan Doylda deduktiv tafakkur va intellektual muammo ustuvor.
3. Umarbekovda ijtimoiy-psixologik drammatizm yetakchi.
4. Ingliz modelida adolat tiklanishi markaziy g'oya bo'lsa, o'zbek talqinida insoniy fojiaga urg'u beriladi.
5. Milliy muhit janr talqiniga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Detektiv janri universal strukturaga ega bo'lsa-da, har bir milliy adabiyotda u o'z estetik va ma'naviy talqini bilan boiydi. Artur Konan Doyl va O'Imas Umarbekov

¹⁰ Artur Konan Doyl. *Sherlok Holmsning sarguzashtlari*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 25-27 b.

¹¹ Baxtiyor Nazarov. *Adabiyot va zamon*. – Toshkent: Akademyashr, 2010. – 66 b.

ijodi detektiv janrning ana shunday ikki turli, ammo o‘zaro qiyoslash mumkin bo‘lgan modelini namoyon etadi.

XULOSA

Artur Konan Doyl va O‘lmas Umarbekov detektiv yo‘nalishdagi asarlarida janrning umumiy struktur tamoyillari saqlanib qolgan bo‘lsa-da, badiiy talqin va estetik maqsad jihatidan sezilarli farqlar mavjud. Har ikki adib asarlarida jinoyat voqeasi syujet harakatlantiruvchi kuch sifatida maydonga chiqadi, tergov jarayoni esa dalil va sabablarni ochish orqali mantiqiy yakunga olib boriladi. Biroq mazmuniy markaz turlicha yo‘naltirilgan.

Konan Doyl ijodida detektiv intellektual muammo yechuvchisi sifatida gavdalanadi. Jinoyat mantiqiy tahlil orqali izohlanadi, yakunda adolat qaror topadi va tartib tiklanadi. Sherlock Holmes obrazi ratsional tafakkurning timsolidir. Umarbekovda esa detektiv syujet ijtimoiy-psixologik drammatizm bilan uyg‘unlashadi. “Yoz yomg‘iri” kabi asarlarda jinoyat insoniy munosabatlar inqirozi va ruhiy parchalanish natijasi sifatida talqin qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Artur Konan Doyl. *Alvon rangli etyud.* – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2022. – 43-47 b.
2. Artur Konan Doyl. *To‘rtlar belgisi.* – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2024. – 75-82 b.
3. Artur Konan Doyl. *Baskervillar iti.* – Toshkent: Kitobdornashr, 2023. – 63-68 b.
4. Artur Konan Doyl. *Sherlok Holmsning sarguzashtlari.* – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 25-27 b.
5. O‘lmas Umarbekov. *Yoz yomg‘iri.* – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1984. – 43-48b.
6. O‘lmas Umarbekov. *Tanlangan asarlar.* – Toshkent: Sharq, 1991. – 96 b.
7. Ozod Sharafiddinov. *Adabiy tanqid masalalari.* – Toshkent: Fan, 1981. – 91-96 b.
8. Ibrohim G‘afurov. *Badiiy tafakkur qirralari.* – Toshkent: Ma‘naviyat, 2002. – 70 b.
9. Umarali Normatov. *Zamonaviy o‘zbek nasri poetikasi.* – Toshkent: Fan, 2006. – 84 b.
10. Baxtiyor Nazarov. *Adabiyot va zamon.* – Toshkent: Akademnashr, 2010. – 66 b.